

Mineral o'g'itlar savdosida yangi tizim joriy etilmoqda

// 11 March 2025 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mineral-ogitlar-savdosida-yangi-tizim-joriy-etilmoqda>

Bugun AOKAda o'tkazilgan brifingda "O'zkimyosanoat" AJ axborot xizmati rahbari Hojiakbar To'laganov mineral o'g'itlarni birja savdolarida sotish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

Unda ta'kidlanishicha, mineral o'g'itlarni birja savdolarida sotishning yangi tizimi joriy qilinmoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish va hosildorlikni oshirishda mineral o'g'itlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlarga ko'ra, ekinlar hosilining qariyb yarmi mineral o'g'itlar hisobiga olinadi.

Shunga ko'ra, jamiyat tomonidan fermerlar, klaster xo'jaliklari va boshqa iste'molchilar uchun qator qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan, kimyo korxonalari mineral o'g'itlarni Respublika tovar-xomashyo birjasida forvard shartnomalar asosida sotishni joriy qildi.

- Forvard shartnomasi fermerlarga o'g'itlarni oldindan to'lovning 30 foizgacha miqdorini to'lab, qolgan qismini 90 kun ichida faktoring xizmati orqali amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, fermer xo'jaligi 100 million so'mlik ammiakli selitra xarid qilishni rejalashtirsa, u 30 foizgacha oldindan to'lovni amalga oshiradi. Sotuvchi korxonalar hujjatlarini rasmiylashtirib, bankka taqdim etadi. Bank esa qolgan 70 million so'm miqdorida faktoring kreditini rasmiylashtirib, mineral o'g'it ishlab chiqaruvchi korxonaga mablag' o'tkazadi, - dedi H.To'laganov.

Ushbu kredit garov talab qilinmaydigan moliyaviy vosita bo'lib, uning 5 foizgacha diskonti korxonalar tomonidan qoplab beriladi. 90 kundan keyin fermer xo'jaligi yetishtirilgan hosilning daromadidan faktoring kreditini bankka qaytaradi.

Tadbirda axborot xizmati rahbari yangi tizim orqali fermerlar o'g'itlarni o'z vaqtida xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lishi, ishlab chiqaruvchilar esa mablag'ni darhol olib, faoliyatini barqaror davom ettirishi mumkinligini ta'kidladi.

N.Ziyodullayeva, O'zA